



UDK:1:111:378 (575.3)

Akram JO'RAYEV

Termiz davlat universiteti falsafa kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: akramtermiziy1990@gmail.com

Renaissance university "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida mudiri, dotsent U.Ergashev taqrizi asosida

GLOBALIZM SHAROITIDA YOSHLARNING MAFKURAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI

Аннотация

Ushbu maqolada globallashtirish jarayonlarining yoshlar ongiga ta'siri, xususan, mafkuraviy beqarorlikning ijtimoiy-psixologik omillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborot texnologiyalari, g'arb madaniyati ta'siri va ma'naviy bo'shliq omillari yoshlarning qadriyat tizimiga qanday zarar yetkazayotgani ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va madaniy merosni tiklash orqali mafkuraviy immunitetni mustahkamlash mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Globalizm, yoshlar, mafkura, immunitet, beqarorlik, ijtimoiy, psixologiya, qadriyatlar, milliylik, zamonaviylik, ommaviy axborot vositalari, tadqiqot.

СТРАТЕГИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗМА

Аннотация

В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на сознание молодежи, в частности, социально-психологические факторы идеологической нестабильности. В исследовании научно обосновано, как информационные технологии, влияние западной культуры и духовный вакуум разрушают систему ценностей молодых людей. Также рассматриваются механизмы укрепления идеологического иммунитета через осознание национальной идентичности, восстановление исторической памяти и культурного наследия.

Ключевые слова: Глобализм, молодёжь, идеология, иммунитет, нестабильность, социальный, психология, ценности, национальная идентичность, современность, средства массовой информации, исследование.

STRATEGIES FOR ENSURING THE IDEOLOGICAL STABILITY OF YOUTH IN THE CONTEXT OF GLOBALISM

Annotation

This article analyzes the impact of globalization processes on the consciousness of youth, focusing on the socio-psychological factors of ideological instability. The study scientifically substantiates how information technologies, the influence of Western culture, and spiritual emptiness negatively affect the value system of young people. It also explores mechanisms for strengthening ideological immunity through the revival of national identity, historical memory, and cultural heritage.

Key words: Globalism, youth, ideology, immunity, instability, social, psychology, values, national identity, modernity, mass media, research.

Kirish. XXI asr globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi bilan ajralib turadigan davrdir. Axborot oqimlarining keskin ortishi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va texnologik rivojlanish inson tafakkuri va qadriyat tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yosh avlod ongida global tendensiyalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning kuchli ta'siri ostida mafkuraviy beqarorlik holatlari tobora ko'proq kuzatilmoqda. Bu holat nafaqat ma'naviy-axloqiy sohada, balki ijtimoiy-psixologik barqarorlik, fuqarolik pozitsiyasi va milliy o'zlikni anglash darajasida ham o'z aksini topmoqda. Shu bois mazkur masala zamonaviy ijtimoiy fanlar, ayniqsa, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik va psixologiya kesishmasida chuqur tahlilni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek olimi A.Ergashev o'zining "Globallashtirish sharoitida yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirish muammolari" nomli asarida globalizm sharoitida yoshlar ongining beqarorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qiladi. Rus olimi V. S. Stepin esa "Философия и мировоззрение глобального мира" asarida global

madaniyatning shaxsiy identifikatsiyani zaiflashtiruvchi xususiyatlarini ochib beradi [1]. Ingliz sotsiologi Anthony Giddens o'zining mashhur "Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age" asarida global modernizatsiya va shaxsning refleksiv identiteti o'rtasidagi murakkab psixologik bog'liqlikni yoritadi. Ushbu uch manba globalizm, mafkuraviy beqarorlik va milliy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ilmiy asosda tahlil etadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, sotsiologik tahlil, psixologik kuzatuv va taqqoslama tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy izlanish jarayonida yoshlarning mafkuraviy beqarorligiga ta'sir etuvchi omillar empirik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Globalizmning ijtimoiy-psixologik ta'siri konseptual model orqali tahlil qilindi. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirish mexanizmlari diagnostik va sotsiokultural metodlar yordamida aniqlab chiqildi. Tadqiqotda nazariy umumlashtirish va tizimlashtirish yondashuvlari ham qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. XXI asr insoniyat tarixida globallashtirish jarayonlarining mislsiz tezlikda kechayotgani

bilan ajralib turadi. Global axborot oqimlari, texnologik inqilob, raqamli kommunikatsiyalar, madaniy almashtiruv va g'oyaviy kurashlarning kuchayishi yoshlarning ongiga bevosita ta'sir qilmoqda. Bugungi yosh avlod dunyoqarashida universal qadriyatlar bilan bir qatorda, madaniy va milliy identifikatsiya o'rtasidagi ziddiyat tobora keskinlashmoqda. Shu sababli yoshlarning mafkuraviy beqarorligi masalasi zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda [3].

So'nggi yillarda O'zbekistonlik tadqiqotchilardan Nafisa Muhiddinova (2025) o'zining "Social Adaptation Challenges of Uzbek Youth in the Era of Globalization: Philosophical Analysis and Future Solutions" nomli ilmiy ishida globalizm sharoitida yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, madaniyatlararo muloqotdagi ziddiyatlar, shuningdek, raqamli ta'sir ostida shakllanayotgan yangi qadriyat tizimini falsafiy tahlil qiladi. U yoshlar orasida ma'naviy-psixologik dissonans – ya'ni an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy global qadriyatlar o'rtasidagi ichki ziddiyat holatini aniqlagan. Muhiddinova natijalariga ko'ra, yoshlarning global axborot muhitiga kirib borishi ularning milliy identitetini zaiflashtirgan bo'lsa-da, ta'lim va madaniyat siyosati orqali bu jarayonni ijobiy yo'nalishga burish mumkin [4].

Bundan tashqari, ingliz sotsiologi Anthony Giddens o'zining mashhur "Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age" (1991) asarida modern jamiyat sharoitida shaxsning "refleksiv identiteti" tushunchasini ilgari surgan. Unga ko'ra, global modernizatsiya inson o'zligini shakllantirish jarayonini beqarorlashtiradi, chunki har bir shaxs doimiy axborot oqimi va madaniy bosim ostida o'z qadriyat tizimini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Giddensning bu nazariyasi yoshlarning mafkuraviy beqarorligini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [5].

O'zbekiston ilmiy muhitida ham so'nggi yillarda globallashuv, yoshlar mafkurasini va milliy qadriyatlar o'zaro aloqadorligi bo'yicha dissertatsion izlanishlar faollashdi. Jumladan, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Milliy universitet va O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2018–2024-yillar oralig'ida bir qator doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Ularning asosiy yo'nalishi – yoshlarning ma'naviy immuniteti, g'oyaviy barqarorlikni shakllantirish va milliy mafkuraning psixologik asoslarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu tadqiqotlarda globalizmga qarshi mafkuraviy barqarorlikni kuchaytirish vositasi sifatida ta'lim tizimini milliy qadriyatlar asosida qayta yo'naltirish zarurligi ta'kidlangan [3].

Rossiya Federatsiyasida 2015-2022-yillar oralig'ida himoya qilingan bir nechta doktorlik ishlari, xususan, V.Stepinning "Философия и мировоззрение глобального мира" (2011) asarida global madaniy kodlar inson ongining transformatsiyasiga olib kelayotganini ilmiy asoslab beradi. Shu bilan birga, E. Trofimova (2020) "Психология современной молодежи в условиях цифровизации общества" mavzusidagi dissertatsiyasida yoshlarning psixologik beqarorligi va virtual muhit ta'sirida shakllanayotgan g'oyaviy zaiflik holatlarini o'rganadi. Tadqiqot natijalari yoshlar orasida raqamli axborotning filtrlarsiz tarqalishi ularning mafkuraviy pozitsiyasini noaniq va o'zgaruvchan holatga keltirayotganini ko'rsatadi. Yevropa va Rossiyada olib borilgan izlanishlar bilan bir qatorda, O'zbekiston olimlari ham bu masalani milliy kontekstda chuqur tahlil qilmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda milliy qadriyatlar, oila, ta'lim va dinning yoshlar ongidagi rolga urg'u beriladi. Masalan, N.Yaxyayeva o'zining "Youth Culture in Modern Uzbekistan" (2023) maqolasida yoshlar madaniyati transformatsiyasi, g'arbcha qadriyatlarining ta'siri va milliy o'zlikni anglash jarayonlarining psixologik jihatlari yoritgan.

Uning fikricha, o'zbek jamiyatida mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash uchun ta'lim muassasalarida ma'naviy-mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish, yoshlarning o'zligini global kontekstda anglashini qo'llab-quvvatlash zarur [5].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlilidan ko'rinadiki, globalizm davrida yoshlarning mafkuraviy beqarorligiga olib keluvchi omillar ko'p qatlamli va murakkabdir. Ular orasida axborot muhitining bosimi, iqtisodiy notenglik, madaniy assimilyatsiya, shaxsiy identitetning zaiflashuvi va milliy qadriyatlarining ikkilamchi darajaga tushib qolishi asosiy o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, barcha tadqiqotlar yakdil tarzda milliy o'zlik, tarixiy xotira, madaniyat va oila institutining mafkuraviy immunitetni tiklashdagi o'rni beqiyos ekanini ta'kidlaydi.

Globalizm davrida yoshlarning mafkuraviy beqarorligi masalasi jahon miqyosida dolzarb ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ko'rilmog'da. XXI asr boshidan boshlab globallashuv jarayonlari axborot texnologiyalari, internet madaniyati va ommaviy kommunikatsiya vositalarining tez sur'atlarda rivojlanishi bilan yanada kuchaydi. Natijada yoshlarning dunyoqarashi, qadriyat tizimi, o'zini anglash darajasi va mafkuraviy immunitetida sezilarli o'zgarishlar yuzaga keldi. Yevropa mamlakatlarida olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, global madaniyatning universallashtiruvchi yoshlarning milliy identifikatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Tom O'Grady (2022) tomonidan 27 ta Yevropa davlatida o'tkazilgan "Is ideological polarisation by age group growing in Europe?" nomli tadqiqot natijalariga ko'ra, 1981-2018-yillar oralig'ida yoshlar va kattalar orasidagi mafkuraviy tafovutlar barqaror holatda saqlanib qolgan bo'lsa-da, yosh avlod ijtimoiy va madaniy masalalarda nisbatan erkin va g'arbons qarashlarga ega bo'lib bormoqda. Bu holat, o'z navbatida, global g'oyalar bilan milliy qadriyatlar o'rtasida muvozanatning susayishiga olib kelmoqda [6].

Rossiyada ham bu jarayon o'ziga xos shaklda kechmoqda. Galina Fomchenkova va Tatyana Novikova (2020) tomonidan yozilgan "Youth Extremism in the Context of Ideology Issues" nomli ilmiy maqolada yoshlar orasidagi mafkuraviy beqarorlik, radikalizmga moyillik, g'oyaviy bo'shliq muammolari ijtimoiy-psixologik omillar orqali tahlil qilingan. Ularning fikricha, iqtisodiy tengsizlik, oilaviy qadriyatlarining zaiflashuvi, diniy-ma'naviy tarbiyaning sustligi yoshlar ongida mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu jihatdan Rossiya olimlari yoshlar mafkurasini mustahkamlashda madaniy merosni tiklash, fuqarolik tarbiyasini kuchaytirish va axborot xavfsizligini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydilar [7].

O'zbekiston tajribasida esa bu masalaga davlat miqyosida yondashilmoqda. So'nggi yillarda bir qator ilmiy tadqiqotlarda yoshlarning globalizm ta'siridagi mafkuraviy va ma'naviy o'zgarishlari o'rganilgan. Masalan, N.Muhiddinova (2025) o'zining "Social Adaptation Challenges of Uzbek Youth in the Era of Globalization: Philosophical Analysis and Future Solutions" nomli maqolasida yoshlarning global axborot oqimlari, internet madaniyati va iqtisodiy bosimlar ostida ma'naviy moslashuv haqida kletirib tahliliy tadqiqotlar olib borgan [3].

Natijada, tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning mafkuraviy barqarorligini ta'minlash strategiyasi ikki yo'nalishda olib borilishi lozim: birinchisi – global axborot oqimi ta'sirini tahlil qiluvchi ilmiy monitoring tizimini yaratish, ikkinchisi – milliy qadriyatlar va ma'naviy tarbiya asosida yoshlarning ijtimoiy-psixologik himoyasini kuchaytirish. Bu yondashuv, G'arb va Sharq tajribalari sinteziga asoslangan holda, globalizm davrida milliy mafkuraviy mustaqillikni ta'minlashning eng samarali yo'li sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, globalizm davrida yoshlarning mafkuraviy beqarorligi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv natijasida axborot oqimlarining cheksiz kengayishi, internet madaniyatining hukmronligi va g'arbona hayot tarzining targ'ib etilishi yoshlarning qadriyat tizimi, o'zlikni anglash va ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, milliy mafkura va global g'oyalar o'rtasida muvozanatning buzilishi, yoshlar ongida ma'naviy va ideologik bo'shliq yuzaga kelmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ayniqsa, madaniy merosga befarqlik, oilaviy tarbiya zaiflashuvi, diniy va fuqarolik ongning sust rivojlanishi yoshlar orasida beqarorlikni

kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash jarayonida milliy qadriyatlarga tayanish, tarixiy xotira, urf-odatlar, til va din kabi an'anaviy asoslarni qayta faollashtirish muhim strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Xulosa qilib aytganda, globalizm davrida yoshlarning mafkuraviy beqarorligini neytrallashtirish milliy qadriyatlarni modernizatsiya qilingan shaklda qayta tiklash, ularni zamonaviy ijtimoiy-siyosiy tizim bilan uyg'unlashtirish, hamda yosh avlodning milliy va insoniy identitetini mustahkamlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu esa nafaqat mafkuraviy barqarorlikni, balki jamiyatning intellektual va ma'naviy xavfsizligini ham kafolatlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. International Association for Cross-Cultural Psychology (IACCP). Cultural Identity and Psychological Stability in Global Youth. – Journal of Cross-Cultural Psychology, Vol. 54, Issue 2, 2023.
3. Jo'raev B. Globallashuv sharoitida yoshlar mafkurasi va milliy o'zlikni anglash muammolari. – Falsafa va huquq jurnali, №4, 2021.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Saidov A. Milliy qadriyatlar va globalizm: falsafiy-ijtimoiy tahlil. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
6. UNESCO Youth and Global Citizenship Education: Strengthening Resilience against Ideological Manipulation. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
7. UNICEF Adolescent Development and Participation: Countering Online Radicalization through National Values Education. 2024.
8. Российская академия народного хозяйства и государственной службы (РАНХиГС). Идеологическая безопасность молодежи в условиях цифровой глобализации. – Москва. 2020.